




THE PROBLEM OF HALF-VOWEL IN THE PERSIAN WRITING SYSTEM

Dilshod Raimov

4th-year student of Persian-English group
Tashkent State Institute of Oriental Studies
Faculty of Iranian and Afghan Studies
E-mail: dilshodbekraimov1@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

B. Jafarov

Senior Lecturer
TSIOS
the Faculty of Iranian and Afghan Studies
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: spacing, full spacing, half-spacing, no spacing.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article is dedicated to the issue of spacing in the Persian writing system. The study examines the placement of spaces between morphemes in Persian words and the reasons behind its development. Additionally, the types of spacing between morphemes, their usage, as well as their advantages and disadvantages, are discussed.

FORS YOZUV TIZIMIDA YARIM FOSILA MASALASI

Dilshod Raimov

4-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi
E-mail: dilshodbekraimov1@gmail.com

B. Jafarov

Katta o‘qituvchi
TDSHU

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: fosila, to‘liq fosila, yarim fosila, fosilasiz.

Annotatsiya: Mazkur maqola Fors yozuv tizimida fosila masalasiga bag‘ishlandi. Fors tilida so‘zlar tarkibidagi morfemalar orasiga masofa qo‘yish va uning kelib chiqish sabablari o‘rganildi. Shu bilan birga morfemalar orasidagi masofa turlari va ularning ishlatilish holatlari hamda avzalliklari va kamchiliklari bayon etildi.

ПРОБЛЕМА ПОЛУЗВУКА В СИСТЕМЕ ПЕРСИДСКОГО ПИСЬМА

Дильшод Раймов

Студент 4 курса персоязычно-английской группы

Ташкентский государственный институт востоковедения

Факультет иранистики и афганистики

E-mail: dilshodbekraimov1@gmail.com

Б. Джафаров

Старший преподаватель факультета иранистики и афганистики

ТГИВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пробел, полный пробел, полу-пробел, отсутствие пробела.

Аннотация: Данная статья посвящена проблеме пробела в системе персидского письма. Исследуется размещение пробела между морфемами в персидских словах и причины его возникновения. Также рассматриваются виды пробела между морфемами, их использование, а также преимущества и недостатки.

Kirish. Fors yozuv tizimida fosila masalasi yaqin yillarda paydo bo‘lgan masaladir. Eronda Fors tili va adabiyoti akademiyasi mana shunday til muammolari va masalalari bilan shug‘ullanadigan muassasadir. Ushbu akademiya mazkur mavzu yuzasidan ham muhokamalar olib borgan va akademiyaning Fors tili yozuv tizimi (yangi tahrir) دستور خط فارسی (ويراست جديد) kitobida fosila masalasi yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan. Fors yozuv tizimida yarim fosilaning tadbiq etilishi fors tilini o‘rganuvchilar uchun anchagina qulaylik yaratdi.

Asosiy qism. Tilshunoslik masalalari va muammolari bo‘yicha qonuniy va vakolatli organ hisoblangan Fors tili va adabiyoti akademiyasi 2002-yilda (hijriy 1381) fors yozuv tizimiga bag‘ishlangan kitobning dastlabki namunasini nashr etdi va uning nashr etilishi bilan fors yozuv

tizimining milliy me'yorlarini taqdim etdi. Unda fosila masalasiga oid bahsda "To'g'ri o'qish va so'zlarning mustaqilligini saqlash uchun so'zlarning oraliq va chegaralarini belgilash" sarlavhasi ostida muhokama qilindi. Bu izohda fosila termini so'zdan tashqaridagi, ya'ni so'zlar orasidagi masofa uchun ishlatiladi. Yarim fosila termini esa odatda kompazitsiyaning tarkibiy qismlari orasiga qo'yiladigan so'z ichidagi masofa uchun ishlatiladi. Amaliy jihatdan yarim fosila shunday masofaki, kompyuter va yozuv mashinasida ishlanganida harflar orasini ochib beradi. Masalan, so'z ichida درون کلمه [darun-e kalame] atamasida to'rrta yarim fosila (درون-کلمه) bor. So'z ichida درون کلمه [darun-e kalame] da esa uchta yarim fosila va bitta to'liq fosila (درون-کلمه) ni ko'rishimiz mumkin. Fors yozuv tizimida yarim fosila termini avvallari ham turli shaklda muhokama qilingan. "Fors yozuv uslubiga kirish" kitobida yarim fosila tushunchasi bo'sh joysiz jadvallar جدولی بدون فاصله [jadvali bedun-e fāsele] nomi bilan atalgan va ko'plab misollar bilan tushuntirilgan.

Fors yozuv tizimida fosila qoidalari jummalarni to'g'ri o'qish uchun yaratilgan. Fors yozuv tizimida fosila qo'yishning uch xil turi bor :

1. To'liq fosila.
2. Yarim fosila.
3. Fosilasiz.

- To'liq fosila mustaqil tarkiblar va so'zlar orasidagi tabiiy masofadir. Masalan:

خانه ی ماهی کوچولو و مادرش پشت سنگ سیاهی بود.

- Yarim fosila so'zning oxirgi harfi o'zidan keyingi harfga bog'lana oladigan, lekin so'zlarni bir-biriga qo'shib yubormaslik, oradagi to'liq masofani qisqartirish uchun ishlatiladigan masofa turidir, masalan:

چند روزی بون که ماهی کوچولو تو فکر بود و خیلی کم حرف می زد.

- Fosilasiz masofa turi esa tarkibida o'zidan keyingi harfga qo'shilmaydigan (munfasil harflar) bo'lgan, so'zlar orasiga qo'yiladigan masofalarining hech biri ishlatilmaydigan masofadir. Masalan:

داشتن مادر بزرگ نعمتی بزرگ برای هر انسان است .

Har qanday yozuv tizimida so'zlar orasida ma'lum bir masofa bo'lishi tabiiydir. Lekin fors yozuv tizimida yarim interval fosila masalasi muhim ahamiyatga ega.

Yarim fosilaning paydo bo'lishiga ikkita yozma va texnik sabablari bor. Yarim fosiladan foydalanishning yozma sababi so'zning shakli va ma'nosida bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Agar so'zlar orasida to'liq fosila hosil qilsak, ikkita mustaqil so'zni nazarda tutishimiz mumkin va jumla tarkibidagi o'rni anglashilmasligi mumkin. Texnik jihatdan esa jumlaning tahlilida qiyinchilikka duch kelamiz. Yarim fosiladan foydalanishning asosiy maqsadi o'quvchiga ko'rayotgani ikki so'z emas, bir so'z ekanligini anglatishdir .

Yarim fosilaning paydo bo'lishining yana bir sababi mi old qo'shimchasi bilan yuzaga kelgan muammolardir. Avvallari mi old qo'shimchasi fe'llarga qo'shib yozilgan. Keyinchalik esa fe'llardan

ajratib yozish yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida yozuvda texnik jihatdan muammolar paydo bo'lgan, ya'ni old qo'shimchasini fe'llardan ajratib yozish jarayonida old qo'shimchasi satr oxirida, fe'l esa keying satrga tushib qolgan. Lekin fors yozuv tizimida so'zlarni bo'g'in ko'chirish mumkin emas.

Yarim fosilaga "Bir so'z ichidagi bo'shliq" desak ham bo'ladi va forscha matnlarda uning ishlatilishi juda zarurdir. Yarim fosiladan quyidagi natijalarga erishish maqsadida foydalanamiz:

- matnni yozma va texnik jihatdan mukammal qilish;
- so'zlarni aralashib ketishini oldini olish;
- matnni sifatini yaxshilash;
- to'g'ri o'qish .

Yarim fosiladan quyidagi holatlarda foydalanamiz:

- fe'llar old qo'shimchasi bilan yozilganida;
- qo'shimchasi bilan keladigan sifatlarda;
- juft so'zlarda;
- fe'lning o'tgan zamon sifatdoshiga shaxs-son qo'shimchalari qo'shilganda;
- so'zlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda;
- qo'shma so'zlarning ikkinchi qismi الف bilan boshlansa;
- so'zlarga شناسی qo'shimchasi qo'shilganda;
- sifatlarga qiyosiy va orttirma darajadagi qo'shimchalar qo'shilganda .

Masalan:

- fe'llarning old qo'shimchasi bilan yozilishi:

هر روز دو سه بار به آقا کالاهه سر می زد . گاهی خانه خلوت می شد .

- qo'shimchasi bilan keladigan sifatlari:

تجربه روس ها از بی اثر سازی تحریم مشخص می کند

- juft so'zlar:

حمل و نقل به طور کلی نقش بسیار مهمی در شکل گیری و به وجود آمدن تمدن ها داشته است

- fe'lning o'tgan zamon sifatdoshiga shaxs-son qo'shimchalari qo'shilishi:

این شرکت ها یک هلدینگ بین المللی را با نام شرکت مادر تخصصی آماذ شرق تشکیل داده اند

- so'zlarga ko'plik qo'shimchasining qo'shilishi:

تمام اتوبوس های برقی شهر تهران در خطوط فعال خواهند شد

- qo'shma so'zlarning ikkinchi qismi الف bilan boshlanishi:

ماه کامل در پدیده های شگفت انگیز در سایه زمین فرو خواهد رفت و به رنگ سرخ مایل به نارنجی برخواهد آمد

- so'zlarga شناسی qo'shimchasining qo'shilishi:

زیست شناس دانشمندی است که موجودات زنده و ارتباط آن ها با محیط خود را مطالعه می کند

- sifatlarga qiyosiy va orttirma darajadagi qo'shimchalar qo'shilishi:

به گزارش همشهری آنلاین به نقل از فارس،مهمترین داده اقتصاد ایران یعنی میزان صادرات نفت پس از خروج یکطرفه آمریکا از برجام محرمانه شد.

Yarim fosiladan Word va Excel dasturlarida ham foydalana olamiz. Buning uchun "Ctrl+Shift+2" kombinatsiyasidan foydalangan holda yarim fosilani hosil qilamiz. Word yoki Excel dasturlarida ishlash jarayonida zarur joyda yarim fosiladan foydalansak, Word yoki Excel dasturi so'zni bitta so'z sifatida sanaydi. Agar yarim fosiladan foydalanmasak, bitta ma'noni anglatuvchi so'z va qo'shimchani ikkita so'z sifatida sanaydi. Bu esa til o'rganuvchiga uchun ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari yuqoridagi kombinatsiyadan barcha matn tahririy dasturlarda foydalana olamiz.

Fosila qo'yish masalasi fors tilida juda muhim ahamiyatga ega. Chunki o'quvchiga matnni o'qish va to'g'ri yozishda katta yordam beradi. Fosilali mashg'ulotlarni mashq qilishning foydali usullaridan biri bu darslik va romanlarni o'qishdir. Bunday so'zlar bilan qanchalik ko'p shug'ullansak, o'rganish shunchalik oson bo'ladi va matnni o'qish zavqi ikki hissa ortadi.

Yarim fosiladan foydalanishning foydali jihatlaridan biri shuki, ayrim so'zlarning ishlatilishida va ularning ma'nosini anglashda o'quvchiga katta yordam beradi. Masalan, *آن‌ها* va *آنها*. Bu ikkalasi ham bir xil ma'noni anglatadi va bir xil o'zak va qo'shimchalardan tashkil topgan. Farqi shundaki *آنها* insonlarga nisbatan ishlatiladi, *آن‌ها* esa jonli va jonsiz narsa-buyumlarga nisbatan qo'llaniladi. *آن‌ها* ni yozishda to'liq intervaldan foydalanadigan bo'lsak, *آن* va *ها* ni orasida biroz kattaroq masofa paydo bo'ladi. Buning natijasida o'quvchida ko'plik qo'shimchasi *آن* ga tegishlimi yoki yo'qmi degan ikkilanish paydo bo'ladi. Albatta ko'plik qo'shimchasi so'zlarning oldidan kelmaydi, lekin shu kabi holatlar o'quvchining diqqatini bo'lib qo'yadi. Agar yarim fosiladan foydalansak, haqiqatdan ham ko'plik qo'shimchasi *آن* ga tegishlik ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Afzalliklari. Yarim fosiladan foydalanishning avzallik jihatida shundaki, ishlatilishi mumkin bo'lgan holatlarda bir ma'noni ifodalash uchun ishlatilgan qo'shma so'zlar yoki bir so'z va unga tegishli bo'lgan old va ort qo'shimchalarni bir-biriga nihoyatda yaqin joylashtirsak bo'ladi. Bu esa o'quvchiga matnni to'g'ri va ravon o'qishi uchun yordam beradi.

Kamchiliklari. Yarim fosiladan foydalanishning kamchiligi shundaki, yarim fosila hali internet sahifalaridan joy olib ulgurmaganligi tufayli internet saytlari va boshqa qidiruv ilovalaridan foydalangan vaqtimizda yarim fosilali so'zlarni topish biroz qiyinchilik yuzaga keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fors yozuv tizimida yarim fosila masalasi yaqin yillarda yuzaga kelgan. Shunga qaramay, so'nggi yillarda chop etilayotgan adabiyotlar, darsliklar va maqolalarda yarim fosiladan samarali darajada foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin yarim fosila internet sahifalaridan joy olishga ulguradi. Yarim fosila masalasi haligacha Eronda bahsli mavzu bo'lib qolmoqda. Tadqiqot natijasida yarim fosiladan foydalanish matnni texnik jihatdan yaxlit bir qolipga solishga va mukammal qilishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida til

o'rganuvchiga so'z chegaralarini aniqlash va so'zlarning talaffuzini ravonlashtirishga xizmat qiladi. Umuman olganda yarim fosiladan foydalanish fors tilidagi matnlarni o'qish va yozishda qulaylik yaratgani uchun til egalariga ham, fors tili o'rganuvchilariga ham birdek manfaatli bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. رهنگستان زبان و ادبیات فارسی «دستور خط فارسی» (تهران ۱۴۰۱)
2. ها اسفند ۱۳۸۲ صمد بهرنگی مجموعه داستان
3. <https://blog.faradars.org/>
4. <https://fa.m.wikipedia.org/>
5. <https://ensani.ir/>
6. <https://roozaneh.net/>
7. <https://www.hamshahrionline.ir/>
8. <https://brt.co.ir/>
9. <https://www.geniranlab.ir/>